# SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 11 Jild 4
2024

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V4I11Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ 11 (4) - 2024***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2024**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймахамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
4-jild, 11-son (Noyabr, 2024). -569 bet.

**MUNDARIJA**

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Лутфиллаев Ҳамидилло Муродиллаевич*
“ЖАВОҲИР АТ-ТАФСИР ЛИ ТУҲФАТ АЛ-АМИР” АСАРИНИНГ МАЗМУНИ ВА ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ ҲАҚИДА ........ 12-17

*Эгамберганов Ҳайтбой Ҳамидулло ўғли*
ТОШ ДАВРИ АҲОЛИ МИГРАЦИЯЛАРИ (ЎРТА ОСИЁНИНГ ЖАНУБИЙ, ЖАНУБИЙ-ҒАРБИЙ ВА ҚУЙИ АМУДАРЁ ҲУДУДЛАРИ МИҚЁСИДА) ........ 18-25

*Esonov Ziyodbek Yuldashevich*
QO’QON XONLARI SULOLASINING GENEOLOGIK TAHLILI ........ 26-31

*Mamatqulov Bekzod*
OʻZBEKISTONDA XX-ASRNING 20-40-YILLARIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI VA KADRLAR TARKIBINI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI ........ 32-38

*Asadova Ra’no Baymanovna*
OʻZBEK- HIND MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHGA KOʻTARILISHI: HAMKORLIK ISTIQBOLLARI ........ 39-42

*Saidova Raxima*
OʻZBEKISTON VA ITALIYA MUNOSABATLARINING ME’YORIY-HUQUQIY MANBALARI ........ 43-48

*Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich, Ergasheva Ra’no Muzaffarbek qizi*
AFROSIYOB ARXEOLOGIK YODGORLIGINING OʻRGANILISH TARIXI ........ 49-55

*Iriskulov Bekzod Jaxongirovich*
TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGI BYuDJETINING SARFLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR ........ 56-60

*Mirsoatova Sayyora Turgʻunovna*
QOYATOSH SURATLARIDA IBTIDOIY DAVR IQTISODIY HAYOTINING AKS ETISHI ........ 61-66

*Луҳмонов Шаҳзод Сайфиддин ўғли*
ВЛИЯНИЕ ДЕНЕЖНОЙ ЭМИССИИ В 1918-1920 ГОДАХ НА СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ЖИЗНЬ НАРОДОВ ТАССР ........ 67-71

*Axmedov Bekzod*
SOVET HOKIMIYATI TOMONIDAN OʻZBEKISTONDA QORAKOʻLCHILIKNI RIVOJLANTIRISH TADBIRLARI ........ 72-75

*Mamatov Jasurbek Qodirqul oʻgʻli*
NAMANGAN VILOYATI ZIYORATGOHLARINING AHOLINING IJTIMOIY HAYOTIDAGI OʻRNI (UYCHI TUMANI DEVONA BUVA ZIYORATGOHI MISOLIDA) ........ 76-80

*Saidaxmatov Sharifbek Toshpoʻlatovich*
SURXONDARYO VILOYATI SANOATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YOʻNALISHLARI ........ 81-88

*Ибрагимов Рахмон Зиёдуллаевич*
ТОШКЕНТ ВОҲАСИ ПАЛЕОМЕТАЛЛ ДАВРИ ЖАМИЯТИ ТАРАҚҚИЁТИДА ТАБИИЙ РЕСУРСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ ........ 89-93

*Akrorov Botir Bakhodirovich*
ДОГОВОРНО-ПРАВОВАЯ БАЗА СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ИРАНА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ ........ 94-99

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Tursunov Bektmuxammad Omonovich*
IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY OʻZGARISHLAR SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMI TAKOMILLASHTIRISH ........ 100-108

*Muxitdinova Kamola Alisherovna*
«OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AJDA ISHLAB CHIQARILADIGAN MAHSULOTLARNING SANOAT KORXONALARIDA QOʻLLANISHI ........ 109-115

*Madraximov Qaxramon Egamberganovich*
INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI IQTISODIY BARQARORLIKKA ERISHISH YOʻLLARI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA........ 116-125

*Кетманов Авазбек Маликович*
КИЧИК БИЗНЕС МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРИ САМАРАДОРЛИГИ ОМИЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ........ 126-134

*Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich*
KAMBAGʻALLIKKA QARSHI KURASHISHNING OMILLARI........ 135-142

*Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon ogli*
MARKET MECHANISMS, METHODS OF PRICE FORMATION IN THE SYSTEM OF MARKETING OF GOODS AND SERVICES ........ 143-152

*Ilhamova Zarnigor Poʻlatjon qizi*
MINTAQA TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETING TIZIMINI TASNIFI ........ 153-160

*Sharipov Komil*
MINTAQAVIY KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHDAGI KICHIK BIZNESNING ROLI ........ 161-170

*Rajabov Navruzbek Azimjonovich*
MAISHIY XIZMAT KOʻRSATISH SOHASINI RIVOJLANISHI VA KAMBAGʻALLIKNI QISQARTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI........ 171-179

*Mirzaeva Shirin Nodirovna*
SUPPORT AND DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN........ 180-187

*Pardayev Rasulbek Islomovich*
TURIZM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING USULLARI VA ULARNING TAHLILI ........ 188-196

*Bahodirov Shohruh Bahodir oʻgʻli*
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH XUSUSIYATLARI ........ 197-202

*Рахимов Бахромжон Ибрахимович*
ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ ........ 203-209

*Zakirova Gulnora Mirzalievna, Madaminov Abdulaziz Anvarjon o‘g‘li*
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKSPORT VA IMPORT SALOHIYATI (NAMANGAN VILOYATI TAHLILIDA)........ 210-216

*Hasanov Ilkhom Isakovich*
IMPROVING THE FINANCING MECHANISM OF THE SCIENTIFIC SUPPLY SYSTEM IN THE AGRICULTURE OF UZBEKISTAN........ 217-221

*Ibragimova Nilufar Ziyadullayevna*
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA XIZMATLAR KO‘RSATISHNING XUSUSIYATLARI ........ 222-227

*Maxmudov Jasurbek Ergashevich*
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY JIHATDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH TAHLILI ........ 228-233

*Ravshanov Nodirjon Begalievich*
TA’LIM XIZMATLARI BOZORIDA OLIY TA’LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI ........ 234-243

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

*Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich*
SHIHOBIDDIN SUHRAVARDIY FALSAFIY QARASHLARIGA IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYATLARNING TA’SIRI ........ 244-248

*Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich*
XORAZM JADIDLARI MA’NAVIY MEROSINING YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLARINI VATANPARVARLIK VA BAG‘RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI...... 249-254

*Saburov Jaloliddin*
XVIII-ASR OXIRI VA XIX-ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA ILM-FAN VA MADANIY HAYOT RIVOJI ........ 255-260

*Jabborov Ikromjon Jumaniyozovich*
NAJMIDDIN KUBRO TA’LIMOTIDA “KOMIL INSON ” TARBIYASI VA UNING AXLOQIY VA MA’NAVIY YUKSALISHGA OID G‘OYALARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 261-265

*Saidkulov Nuriddin Akramkulovich*
FORMATION OF PERSPECTIVES REGARDING SOCIETY'S STABILITY ........ 266-271

*Adilov Zafar Yunusovich*
MAHMUD AZ-ZAMAHSHARIY QARASHLARIDA SUV VA SHIFOBAXSH MEVALAR MASALASI ........ 272-277

*Yuldashev Farrux Abdurakhmanovich*
ON THE QUESTION OF THE UNIQUE ROLE OF THE PRINCIPLES OF HUMANITY AND PATRIOTISM IN THE DEVELOPMENT AND STRENGTHENING OF THE FUTURE OF THE YOUNG GENERATION ........ 278-282

*Ganiyev Baxodirjon Sodiqjonovich*
TADBIRKORLIK MADANIYATINING SENSUALISTIK VA AKSIOLOGIK XUSUSIYATLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI ........ 283-287

## 11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

*Baxronova Dilrabo*
PROTOTURKIYLARNING AMERIKA QIT'ASIGA KOʻCHISHI: LEKSIK PARALLELLIZM VA ETIMOLOGIK-SEMANTIK TADQIQ ........ 288-295

*Daliyeva Madina*
DETERMINANTS OF COGNITIVE MODELING OF POLYSEMY OF LINGUISTIC TERMS IN ENGLISH, UZBEK, AND RUSSIAN LANGUAGES ........ 296-300

*Paluanova Khalifa*
STRATEGIES FOR ENHANCING PRAGMATIC COMPETENCE IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION (SLA) THROUGH EFFECTIVE APPROACHES ........ 301-306

*Равшанов Махмуд*
СЕМАНТИКА ГЛАГОЛОВ В «ДИВАНИ ЛУГАТ-ИТ ТУРК» МАХМУДА КАШГАРСКОГО ........ 307-311

*Bekbergenova Gulaim Aijarıkovna*
SEMANTIC CLASSIFICATION OF ENGLISH AND KARAKALPAK ANTHROPOCENTRIC PROVERBS ........ 312-318

*Normamatov Farrux Komiljon oʻgʻli*
MURAKKAB USLUBDAGI ASARLAR XUSUSIYATLARI VA UNDA FORMALIZM YONDASHUVI ........ 319-322

*Gulamova Dilobar Imamkulovna*
ADABIYOT DARSLIKLARDA EVFEMIZMLARNING QOʻLLANILISHI VA TAHLILI ........ 323-326

*Xolmuxamedov Baxtiyor*
TERS LUGʻATLARNING ASOSIY XUSUSIYATI VA ULARNI TUZISH METODIKASI ........ 327-334

*Chorieva Iroda Kurbonboevna*
KASALLIK NOMLARI VA BELGILARI KELTIRILGAN INGLIZ VA OʻZBEK MAQOLLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI ........ 335-339

*Ganiyeva Orzigul Xayriddinovna*
XX ASR AMERIKA REALISTIK QISSACHILIGIDA POETIK KONSTRUKSIYA: SHAKL VA MAZMUN MASALASI ........ 340-345

*Расулова Камола*
ПОНЯТИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ. ВИДЫ АВТОРСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ........ 346-353

*Омонов Турғунбой*
"СУҒУРТА" ТЕРМИНИНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАЪРИФИ ........ 354-358

*Хакбердиева Сайёра Фармоновна*
ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ОБЪЕКТИВИЗАЦИЯ ФРЕЙМА «МАТЬ» И «ОТЕЦ» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ ........ 359-364

*Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamahmudovich*
IJTIMOIY-SIYOSIY ASAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 365-370

*Gubaydullin Artur Faridovich*
CHALLENGES OF TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S "GOOD OMENS" ........ 371-376

*Abdullaeva Sevara Makhsudalievna*
EMOTIVE INTENSIFIERS OF ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES ........ 377-381

*Baymuradova Gulbaxar Chari Qizi*
SURXONDARYO VILOYATI FITOTOPONIMLARINING STRUKTURGRAMMATIK TAHLILI ........ 382-385

*Yuldasheva Nigora Baxodirovna*
INGLIZ VA O‘ZBEK PAREMIYALARINI O‘RGANISHNING AKSIOLOGIK JIHATLARI ........ 386-390

*Quljanova To‘lg‘anoy Shodiyor qizi*
ABDUVALI QUTBIDDIN SHE’RIYATIDA POETIK OBRAZLAR TAHLILI ........ 391-396

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*Рузметов Хайрулла*
ФУҚАРОЛАРНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИ МАНСАБДОР ШАХСЛАРИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖАВОБГАРЛИГИ ........ 397-402

*Ачилова Лилия Илхомовна*
ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШ БЎЙИЧА ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ УНИФИКАЦИЯСИ ЧЕГАРАЛАРИ РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА ........ 403-410

*Abdubannayev Umidjon*
AXBOROTGA BO‘LGAN INSON HUQUQLARINI TA’MINLASHNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI ........ 411-421

*Халиқулов Комолиддин Носирович*
ХОРИЖИЙ ДАВЛАТ СУДЛАРИНИНГ ҚАРОРЛАРИНИ ТАН ОЛИШ ВА ИЖРО ЭТИШДА ДАВЛАТ СУВЕРЕНИТЕТИ МАСАЛАЛАРИ ........ 422-427

*Тўраев Жавоҳир Усмон ўғли*
ХОДИМЛАР МЕҲНАТ ҲУҚУҚЛАРИГА РИОЯ ҚИЛИНИШИ БЎЙИЧА ДАВЛАТ НАЗОРАТИ ВА ТЕКШИРУВИ ТУШУНЧАСИГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР ........ 428-433

*Элмурзаев Билолиддин Нурмон Ўғли*
ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ТЕРГОВЧИНИНГ ПРОЦЕССУАЛ МУСТАҚИЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ........ 434-439

*Djumaniyazova Dilfuza Kamalovna, Shayakubov Shomansur Shakabilovich*
IJTIMOIY HAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR O‘RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA ........ 440-446

*Алиев Асилбек Кадирович*
КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ (СОЦИАЛЬНЫЕ) ПРЕДПОСЫЛКИ И КОРНИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ АЗАРТНЫХ ИГР СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ ........ 447-451

*Нодирахон Абдурахманова*
РЕГУЛИРОВАНИЕ ФИНТЕХА И КРИПТОВАЛЮТ: ОСНОВНЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ........ 452-462

*Ғайбуллаев Сохибжон Ғайбуллаевич*
РЕПО БИТИМЛАР – ТАЪМИНЛОВЧИ БИТИМ СИФАТИДА УМУМИЙ ТАВСИФ ........ 463-469

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Xusanova Mohira*
OLIY O’QUV YURTLARIDA TALABALARNI BAHOLASH SHAKLINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 470-479

*Берикбаев Алишер Аликулович*
ТАСВИРИЙ САНЪАТ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ИЛҒОР ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ........ 480-483

*Yusupova Shoxista Alimjanovna*
TALABALARNING TASVIRIY SAN’AT MASHG‘ULOTLARIDA IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI ........ 484-489

*Yakubova Nafisa Odilyanovna*
CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARNI IJODIY–KREATIV FIKRLASHGA O‘RGATISH ........ 490-494

*Musirmanov Shohboz Usmon o‘g‘li*
TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA AMALIYOT VA NAZARIYANING PEDAGOGIK UYG‘UNLIGI ........ 495-500

*Suvankulov Umid Ilxom o‘g‘li*
MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOGLARNING DISKURSIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI ........ 501-505

*Ibragimov A’lamjon Amrilloyevich*
O‘QITUVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHGA KOGNITIVFUNKSIONAL YONDASHUV ........ 506-518

*Jo‘rayeva Feruza Baxtiyor qizi, Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o‘g‘li*
TA’LIMDA KOMMUNIKATIV INNOVATSION VOSITALAR VA ULARNING IMKONIYATLARI ........ 519-524

*Siddiqova Shahnoza Ahmedovna*
SCIENCE XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING O'ZBEKISTONDA BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING TABIIY FANLAR SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI ........ 525-529

*Xoliqov Nasriddin Abdikarimovich*
MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING SHARTI SIFATIDA TA’LIM, FAN VA BIZNESNING O‘ZARO ALOQALARI MAZMUNI ........ 530-534

*Javliyeva Shahnoza Bahodirovna*
TA’LIM SIFATIGA YO‘NALTIRILGAN O‘QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI ..... 535-539

*Jumaboev Nabi Pardaboevich*
TA’LIM SIFATIGA YO‘NALTIRILGAN O‘QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI ..... 540-545

*Kayumov Erkin Kazakbayevich*
THE IMPORTANCE OF FINE ARTS IN SHAPING STUDENTS' PERCEPTION AND CREATIVITY ........ 546-550

*Khojamqulov Rasulbek Kurban ugli*
THE NEED TO DEVELOP COMPETENCY OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS ........ 551-555

*Latipova Gavhar Shavkat kizi*
TARIX YO’NALISHI TINGLOVCHILARI UCHUN KREATIV SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA ........ 556-564

*Ernazarov G‘olibjon Ne’matovich*
ATROF- MUXITNING YUKORI XARORATIDA MUSHAK FAOLIYATI ........ 565-568

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 4 | Issue 11 | 2024
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 31 October 2024
**Accepted:** 5 November 2024
**Published:** 15 November 2024

*Article / Original Paper*

# THE SIGNIFICANCE OF THE SPIRITUAL HERITAGE OF THE KHORAZM PEOPLE IN EDUCATING YOUTH IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM AND TOLERANCE IN THE NEW UZBEKISTAN

**Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich**
Bukhara State University researcher

**Abstract.** In the content of this article, the patriotic ideas of the Jadids are analyzed and their role in educating young people in the spirit of patriotism is discussed. In understanding the patriotic spirit in the history of our country, the place and role of the modern enlightened ideas of Turkistan are explained, and the educational and educational works that the modern enlightened people did for their own personal interests, passing away from the state of peace, for the benefit of the nation, and the development of our country. it is revealed that they left an indelible mark on his memory.

**Key words:** Enlightenment, modern, modern ideas, science, enlightenment, national development, student youth, Motherland, patriotism, education, history, national development.

# XORAZM JADIDLARI MA'NAVIY MEROSINING YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARINI VATANPARVARLIK VA BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI

**Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich**
Buxoro Davlat universiteti tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolaning mazmunida jadidlarning vatanparvarlik g'oyalari tahlil etilgan va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi o'rniga to'xtalib o'tilgan. Yurtimiz tarixidagi vatanparvarlik ruhiyatini tushunishda Turkiston jadidlari ma'rifatparvarlik g'oyalarining o'rni va roli bayon etiladi hamda jadid ma'rifatparvalari o'zlarining shaxsiy manfaatlari, huzur halovatidan kechib, el-ulus manfaati, yurtimiz taraqqiyotini maqsad qilib amalga oshirgan ta'lim-tarbiyaviy ezgu ishlari avlodlar xotirasida o'chmas iz qoldirganliklari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ma'rifatparvar, jadid, jadidchilik g'oyalari, ilm-fan, ma'rifat, milliytaraqqiyot, o'quvchi yoshlar, Vatan, vatanparvarlik, tarbiya, tarix, milliylik, milliytaraqqiyot.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I11Y2024N34

**Kirish.** Vatanparvar insonlarni tarbiyalashda xalqimizning tarixiy merosi katta ahamiyatga ega. Shu sababli tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va kelajak avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Mamlakatimizda globallashuv sharoitida sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, hozirgi zamon talablariga to'liq javob bera oladigan, har tomonlama rivojlangan shaxslar bo'lib yetishishlarini ta'minlash taraqqiyotimizning bosh maqsadidir.

Bugungi kunda mamlakatimizda ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bizga ma’lumki, xalqimiz tarixining murakkab damlarida, ma’rifat mash’alini baland ko‘tarib chiqqan buyuk alloma va adiblarimiz jadidchilik xarakatining namoyondalari hisoblanishadi. Jadidchilik (arab. jadid – yangi) [1.64] turkiy mamlakatlar Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston tarixiga XIX asr oxiri XX asr boshlarida muhim ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat sifatida kirgan. Shu davrninng 90-yillarida esa O‘rta Osiyo mamlakatlariga tarqalgan. Jadidchilik harakatining asosiy g‘oyasi avvaliga madaniyat sohasidagi harakat tarzida namoyon bo‘lib, ijtimoiy hayotning taraqqiyoti uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillarning adabiyotni shakllantirish va boyitish, dunyoviy ilmlarni chuqurroq o‘zlashtirish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi muammolari uchun kurashishga da’vat qilganlar. Ular uchun o‘z davrida yangi avlod ta’lim va tarbiyasi muammolari faqat orzu bo‘lganligi, jamiyat taraqqiyotida madaniyati, ma’rifati, ilm-fanning rivoji bilan bog‘liqligini har tomonlama teran anglaganlar. O‘zlarining shaxsiy manfaatlari, huzur halovatidan kechib, el-ulus manfaati, yurtimiz taraqqiyotini maqsad qilib amalga oshirgan ta’lim-tarbiyaviy ezgu ishlari avlodlar xotirasida o‘chmas iz qoldirganliklariga hozirgi kunda guvohmiz.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga etishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhim”[2].

Turkistonda jadidchilik harakatining rahbarlari sanalgan Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvar qori Abdurashidxonov birlashtiruvchi va jipslashtiruvchi rolni o‘ynashgan. Buxoroda - Fayzulla Xo‘jayev va Abdurauf Fitrat, Xiva xonligida esa - Polvonniyoz Yusupov bu harakatga boshchilik qilishgan. Jadidlarning ma’rifatparvarlik mafkurasi ijtimoiy jihatdan ancha boy va rang-barang bo‘lgan. Unda hozirgi kunimizda ham jamiyatni to‘lqinlantiradigan, hayajonga soladigan tarixiy vazifa va masalalar qatoriga biz ma’naviy barkamollikka yetishda dinni to‘g‘ri anglab tushunib yetishimiz, huquqiy va iqtisodiy bozor makonini tashkil qilish jarayonini tezlashtirish, taraqqiy etgan ilg‘or demokratik institutlarni bunyod qilish, o‘ziga xos milliy rivojlanishlarni kiritishimiz mumkin. Bu masalalarni hal etib amalga oshirishda muhim omil sifatida islomning modernizatsiyalashuvi, uni qotib qolgan aqidalardan tozalash, fan va ilg‘or texnologiya yutuqlarini egallab borish muammolari maydonga chiqadi[3].

**Muhokama.** Xiva jadidchiligi 20-asr boshlarida Xivada shakllangan jadidchilik bir qadar boshqacharoq tarixiy shart-sharoitda vujudga keldi. U bu yerda asosan ikkita oqimdan iborat edi. Uning o‘ng oqimi xonlikda rivojlanayotgan savdo-sanoat korxonalari egalari hamda yirik boylarning vakillarini o‘ziga birlashtirgan edi. Bu oqimga Xiva xoni Asfandiyorxonning bosh vaziri Islomxo‘ja boshchilik qilgan. Jadidchilikning o‘ng oqimi o‘z oldiga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o‘tkazish orqali erkin bozor munosabatlarining rivojlanishiga keng yo‘l ochib berishni maqsad qilib qo‘ygan edi.

Xivada jadidchilikning so‘l oqimi esa mayda sarmoyadorlar, hunarmandlar va xalqning turli tabaqa vakillarini birlashtirgan bo‘lib, qozikalon Bobooxun Salimov uning rahbari edi. Ular Xiva xonligida yangi usul maktablari tashkil qilish orqali xalq ommasining siyosiy faolligini o‘stirish maqsadini qo‘yishgan edi. 1904-yil “jamiyati xayriya” tuzilib, uning ko‘magi bilan Xiva shahrida dastlabki yangi usul maktabi ochildi (1904-yil 10-noyabrda). Xiva jadidlari ma’rifiy

ishlar bilan kifoyalanib qolmasdan, xon tuzumiga qarshi kurash ham olib bordilar. Birinchi jahon urushigacha Xiva jadidlarining yagona markazi va dasturiy hujjatlari boʻlmagan. Biroq jadidchilik harakati Xiva xonligida katta ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanib, 1914-yil avgustda u partiya shaklini olgan.

**Natijalar.** XXI asrda xalqaro maydonda mafkuraviy, gʻoyaviy va informatsion kurashlar kuchayib borayotganligi, murakkab va taxlikali davrda maʼnaviymaʼrifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya etish, yurtdoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon-atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldolik hissini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch-osoyishta hayotimizga xavf tugʻdirishi mumkin boʻlgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borishni taqazo etmoqda.

Demak, respublikamiz oʻz rivojlanish yoʻlidan tezroq borishi uchun xalq maʼna-viyati, turmush tarzini, milliy gʻururni muttasil yuksaltirib borish zarur boʻladi, binobarin, maʼnaviy jihatdan qoloq mamlakat hech vachon buyuk mamlakat boʻla olmaydi. Demak, globallashuv jarayonida rivojlanish taqdirini maʼnaviy jihatdan yetuk kishilar xal qiladi. Maʼnaviy yetuklikni vatanparvarliksiz tasavvur etib boʻlmaydi.

Vatanparvarlik jahondagi barcha xalqlar uchun yuksak qadriyat hisoblanadi. U mazmun-mohiyati, namoyon boʻlishining turli koʻrinishlari va oʻziga xos xususiyatlari, jamiyat va inson hayotida hamda urf-odatlarimiz, qolaversa, milliy fazilatlarimiz tizimidagi oʻrni aloxida ahamiyatga egadir.

Vatan, Ona Vatan, Ona tuproq - inson uchun bebaho boylik. Vatanning borligi insonga ulkan gʻurur-iftixor baxsh etadi, chunki insonning eng pokiza va muqaddas tuygʻulari oʻzi tugʻilgan Vatan tushunchasi bilan chambarchas bogʻliqdir.

“Vatan” atamasi aslida arabcha soʻz boʻlib, ona-yurt maʼnosini anglatadi. Vatan deganda barchamizning tasavvurimizda, avvalambor, insonning kindik qoni toʻkilgan tuproq, uni voyaga yetkazib kamol toptirgan, hayotiga maʼno-mazmun baxsh etgan oʻz oilasi, maktabi va maxallasi gavdalanadi. Zero, har bir fuqaroning oʻz toʻgʻilgan yeri, oʻsib ulgʻaygan yurti mavjud.

Vatanparvarlik, eng avvalo, oʻz vatanini, xalqini, tuprogʻini sevish, ularning mohiyatini anglab yetishi, ularning oldida turgan ulkan vazifalarni hal qilish tushuniladi [5.25].

Etikaning asosiy tamoyili sifatida u insonning oʻz Vataniga muhabbatini, uni asrab-avaylashga boʻlgan ishtiyoqini anglatadi. Bunda eng avvalo, oʻz vatandoshlari erkini asrash uchun kurash, inson ozodligi yoʻlidagi hatti-harakatlar, har bir sohalarda Vatan erishgan yutuqlardan quvonch, muvaffaqiyatsizliklardan qaygʻurish, Vatan bilan gʻururlanish, uning har bir qarich yeriga, binosining har bir gʻishtiga, qadimiy obidalariga, ilm-fan va sanʼatdagi yutuqlariga mehr bilan qarash, ularni koʻz qorachigʻidek asrab-avaylash tushunchalari vatanparvarlikda oʻz aksini topadi.

Demak, respublikamizdagi har bir fuqaro vatan oldidagi oʻz burchini fidoyilik bilan ado etsagina, vatanparvarlik eʼtiqodi mustaqil mamlakatimiz taraqqiyotiga katta taʼsir etuvchi maʼnaviy kuchga aylanadi.

“Vatanparvarlik tugʻma, irsiy xususiyat emas” deb, taʼkidlagan faylasuf olim Erkin Yusupov, balki muayyan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy vaziyatda taʼlim-tarbiya natijasida shakllanadigan maʼnaviyatdir. U esa oʻz navbatida insonda axloqiy teranlik, huquqiy savodxonlik, burch, vatanparvarlik maʼsuliyatini chuqur his qilish, poklik, halollik, fidoyilik, mehnatsevarlik, sadoqatlilik kabi fazilatlarni shakllantiradi.

Xalqimizning “Vatanni sevmoq iymondandir” degan hikmatli soʻzi bejiz aytilmagan. Shunday ekan, har birimizning tugʻilib oʻsgan makonimiz, yoru-doʻstlarimiz va qarindosh-urugʻlarimiz bilan uzviy bogʻlovchi, Vatanimizni sevib ardoqlashimiz iymonimiz irodasidir. Madomiki, shunday ekan, Vatanga qalban muhabbat qoʻyish, chin yurakdan sevish, uning taraqqiyoti yoʻlida halol mehnat qilib, kuch-gʻayrat sarflash, fidoyi boʻlish har birimizning fuqarolik burchimizdir.

Vatanparvarlik nafaqat soʻzda, balki har birimizning amaliy harakatimiz va mehnat faoliyatimizda oʻz ifodasini topmogʻi lozim. Yurt boyliklarini asrash, turmush farovonligini taʼminlash yoʻlida qaygʻurishimiz kerak.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoev jamiyatimizdagi fidoyi, bilimdon, vatanparvar, sogʻlom tafakkurga ega boʻlgan ziyoli odamlar, yoshlar koʻpayishiga ishonch bildirar ekan, navbatdagi vazifa ularning intilishi va tashabbuskorliklarini bir nuqtaga toʻplash, bir maqsad sari yoʻnaltirish shu asosda milliy mafkuramizni rivojlantirish va xalqimizni ongiga singdirishdan iborat ekanligini alohida taʼkidlaydi [5.21].

Mustaqillikni mustahkamlash, uni qadrlash, ulugʻlash, vatanga xizmat qilish bizning ongimizga, aqidamizga aylansagina, tanlagan yoʻlimizdan hech qanday kuch bizni qaytara olmaydi, qaddimizni buka olmaydi.

Bugungi taxlikali va murakkab kunlarimizda yoshlar tarbiyasini yanada kuchaytirishga ehtiyoj seziladi. Shuning uchun talabalarning vatanparvarlik, Vatan hissi, mustaqillik, istiqlol mafkurasi toʻgʻrisidagi tushunchalarini boyitish taqazo qilinadi.

Buning eng asosiy shartlaridan biri gʻoyaviy tarbiyani kuchaytirishdan iboratdir. Bunda esa avvalo tashqi va ichki tahdidlarni chuqur bilib, tahlil qilib, mohiyatini anglash zarur.

Ichki va tashqi tahdidlar va ulardan oʻzini himoya qilish koʻnikmalari taʼlim-tarbiya, bobo-momolarimiz oʻgiti, ota-onalar ibrati, ezgulik va yovuzlikni, harom va halolni ajratib olish jarayonida shakllanadi.

Gʻoyaviy tarbiya jarayonida inson faoliyati aniq bir gʻoyaviy maqsadga yoʻnalti-rilgan boʻlib, bu niyat koʻpincha koʻzga tashlanmaydi. Gʻoyaviy tarbiyaning asosiy maqsadi kishilarda hushyorlik, sezgirlik hissini shakllantirish, yot va zararli gʻoyalarga, ichki va tashqi tahdidlarga qarshilik koʻrsatish qobiliyatini shakllantirish demakdir.

Ichki tahdidlar bular - oʻz Vataniga, vatandoshlariga zarar yetkazishga qaratilgan gʻoya, fikr, hatti-harakatlar majmuidir. Nosogʻlom mahalliychilik, yurtdoshlar haqqiga xiyonat qilish, odamlarni boykambagʻalga boʻdib muomula qilish, poraxoʻrlik, mansabparastlik, korrupsiya, ortiqcha mol-dunyoga xirs qoʻyish, qonun qoidalarni mensimaslik, befarqlik, yon-atrofdagi boʻlayotgan hodisalarga loqaydlik, oʻzligini anglamaslik, qarindosh-urugʻchilik va boshqa illatlardir. Bu illatlar qancha keng tarqalsa, yurtdoshlarimizning gʻoyaviy birligiga shuncha koʻp zarar yetkazadi, parokonda qiladi, hamjihatlikka putir yetadi [4.187].

Bir qarashda unchalik ahamiyatga ega emasday tuyiladigan ichki tahdidlar atrofimizdagi kishilarga norozilik, ikkilanish va kelajakka boʻlgan ishonchni yoʻqotishi mumkinligi gʻoyaviy, axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiyalarning oʻzagini tashkil etadi. Har qanday axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiya muayyan gʻoyani himoya qilish, targʻib etish va rivojlantirishga qaratilgan boʻladi.

Bugungi globallashuv jarayonida bizga tahdid solayotgan yot, vayronkor gʻoyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirish vazifasi gʻoyat dolzarb masala boʻlib

qolmoqda. Shaxs, ijtimoiy gurux, millat, jamiyatni turli zararli gʻoyaviy taʼsirlardan himoyalashga xizmat qiluvchi tizim mafkuraviy immunitet deb ataladi.

Mafkuraviy immunitetni oʻziga xos xususiyatlari bilan quyidagilarga ajratish mumkin. Birinchidan, insonning umumiy immunitet tizimi tugʻma boʻlsa, mafkuraviy immunitet shakllantirilib boriladi. Ikkinchidan, u har bir avlod uchun alohida xususiyatga ega boʻladi. Uchinchidan, immunitet tizimi shakllantirilgan taqdirdagina jamiyatni mafkuraviy daxlsizligi taʼminlanadi.

Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birinchi elementi – bu bilimdir, deydi B.Isakov. Lekin bilimlar ham turli-tumandir. Shuning uchun ham, mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar obʼektiv boʻlishi, voqelikni toʻgʻri va toʻliq aks ettirish, inson maʼnaviyatining boyishi, xalq va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi zarur.

Mafkuraviy immunitet tizimining ikkinchi asosiy elementi ana shunday ilgʻor bilimlar zamirida shakllanadigan baholar, qadriyatlar tizimidir. Qadriyatlar tizimi esa mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi hamda vayronkor gʻoyalar yoʻlida mustahkam qalqon sifatida xizmat qiladi.

Bu bilimlar va qadriyatlar tizimining oʻzi mafkuraviy immunitetning mohiyatini toʻliq ifoda eta olmaydi. Chunki bu ikki element mafkuraviy immunitetning uchinchi omili, yaʼni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va maʼrifiy soxalaridagi maqsadlar tizimi boʻlmasa, inson, millat va jamiyat, goh oshkora, goh pinhona shakldagi gʻoyaviy taziyqlarga bardosh bera olmay qoladi [5.26].

Gʻoyaviy tarbiyaning vatanparvarlikni shakllantirishdagi oʻrni haqida gap borar ekan, eng avvalo ularda milliy mafkura, milliy gʻurur, milliy iftixor tuygʻusini shakllantirish, farzanndlarimiz qalbida Vatanga, boy tariximiz, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sogʻlom munosabatni qaror toptirish, taʼbir joyiz boʻlsa, ularning gʻoyaviy immunitetini kuchaytirishimiz kerak.

Globallashuv sharoitida yoshlarda vatanparvarlik tuygʻularini shakllantirishda gʻoyaviy tarbiyaning quyidagi jihatlariga alohida eʼtibor berish talab etiladi:

- taʼlim muassasalarida barcha fanlar, xususan, tarix, adabiyot, falsafa, dinshunoslik fanlarini oʻqitishda gʻoyaviy tarbiyaga alohida eʼtibor qaratish;
- tarixiy haqiqatning mohtyatini toʻgʻri ochish uchun milliy gʻoyaning mohiyatini chuqur, atroflicha oʻrganish va egallash;
- yoshlarning intellektual rivojlanishi, oʻz shaxsiy fikriga ega boʻlishi va erkin muloxaza yuritishlariga erishish, gʻoyaviy sogʻlom, yot va zararli gʻoyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetni tarbiyalash, turli aqidaparastlar bilan asosli va tanqidiy munozara olib borish qobiliyatini shakllantirishga erishish lozim;
- Vatanimizning shonli tarixi va buyuk kelajagini uzviy bogʻlash, oʻzimizni buyuk ajdodlarimiz merosini munosib vorislari deb his qilish, shu bilan birga jahon va hozirgi zamon fani yutuqlaridan foydalanish koʻnikmalarini rivojlantirish;
- Taʼlim muassasalari, mehnat jamoalari, mahallalarda “Oʻzbekiston Vatanim manim”, “Bu azaiz vatan barchamizniki”, “Vatan ichra vatanim manim”, “Yagonasan, muqaddas Vatan» kabi mavzularda koʻrik-tanlovlar tashkil etish;
- Yoshlarda dunyoda kechayotgan jarayonlar, voqealar haqida xolis fkrga ega boʻlish, mamlakatimizdagi oʻzgarishlarda faol ishtirok etish ishtiyoqini uygʻotish va x.k.

**Xulosa.** Shunday qilib, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda, Buxoro amirligi hamda Xiva xonligida siyosiy harakat va partiyalarning vujudga kelishiga Chor Rossiyasi hukumati va mahalliy ma’murlarning 182 oʻlka xalqlariga oʻtkazayotgan zulmining tobora ortib borishi, mamlakatdagi iqtisodiy qoloqlik va inqiroz, aholi turmush darajasining pasayishi, shuningdek, ziyolilar tomonidan xalqning orzu-istak va ehtiyojlari, haq-huquqlari hamda manfaatlarining anglab olinishi kabilar sabab boʻldi. S.S.Agzamxodjaev toʻgʻri ta’kidlaganidek, Turkiston, Buxoro, Xorazm ma’rifatparvarlarining yoʻli bir xil boʻlmagan boʻlib, har biri oʻziga xos xususiyatlarga ega edi. Lekin ularning hammalaridagi kontseptual gʻoyalar hozirgi davr buyuk oʻzgarishlar amaliyotining ma’naviy asoslari, keng qamrovli islohotlar yoʻnalishi va bugungi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining nasliy oʻzagi boʻlib xizmat qildi [6, 12].

Xiva jadidlari hamisha el-yurti, vatan ravnaqi, yoshlarning savodli va salohiyatli boʻlishi haqida qaygʻurgan. U oʻzining ahloqiy, ta’limiy asarlari bilan oʻzbek ma’rifatchiligida iz qoldirgan, milliy uygʻonish davri adabiyotining maydonga kelishi va rivojiga katta hissa qoʻshgan Xorazm jadidlarining ijodi bugun ham ma’naviyatimizni boyitishga xizmat qilib kelmoqda. Bugungi kunda oʻsib kelayotgan yoshlarni, xususan, vatanimizning bugungi va ertangi himoyachilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ma’naviy-axloqiy fazilatlarning oʻrni davr talabidir. Zero, vatanparvarlik insonning oʻz oilasiga, avlodajdodlarining or-nomusiga chuqur ehtiromi, vijdoniga, burchiga va oʻz soʻziga sodiqligidir. Barchamizga ayonki, insonni bolalikdan oʻz yurtiga, uning an’analariga, tili va madaniyatiga muhabbat hamda hurmat ruhida axloqiy fazilatlarga ega shaxs etib tarbiya qilmasak, unda vatanparvarlik hissi boʻlmasligi muqarrar.

## Адабиётлар/Литература/References:


1. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Oʻzbekiston milliy entsiklopediyasi, Davlat ilmiy nashriyoti, 64 bet
2. Mirziyoev Sh. “Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qa’tiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz”. -T.: “Oʻzbekiston”, 2017.
3. “Jadid ma’rifatparvarlarining milliy ta’lim, matbuot, adabiyot va san’atni rivojlantirishga qoʻshgan hissasi va uning Milliy gʻoya targʻibotidagi ahamiyati” mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2016 yil 15 aprel’.
4. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma’sulmiz. 9-jild, - T.: “Oʻzbekiston” 2001. 187-bet.
5. Isaqov B. Ziyolilik ma’suliyati. -T.: “Ma’naviyat”, 2008. 26-bet.
6. Agzamxodjayev S.S. Turkiston ma’rifatparvarlarining jamiyatni yangilash haqidagi gʻoyalari: nazariya va amaliyot // Jadidlar ilm-ma’rifat va ma’naviy merosining yoshlar ta’lim-tarbiyasidagi ahamiyati: Resp. ilmiyamaliy anjumani materiallari. – T.: Oʻzbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2020.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 11 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).